

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/28.02.2011.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
SHAHRISABZ FILIALI**

SADULLAYEV SIROJIDDIN XUDOYBERDI O‘G‘LI

**NON ISHLAB CHIQRISHDA MAHALLIY TRITIKALE UNIDAN
RATSIONAL FOYDALANISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy(PhD)

Sadullayev Sirojiddin Xudoyberdi o‘g‘li

Non ishlab chiqarishda mahalliy
tritikale unidan ratsional foydalanish..... 3

Садуллаев Сирожиддин Худайберди угли

Рациональное использование местной муки
тритикале при производстве хлеба 21

Sadullayev Sirojiddin Xudayberdi ogli

Rational use of local triticale flour in bread production..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 42

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/28.02.2011.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
SHAHRISABZ FILIALI**

SADULLAYEV SIROJIDDIN XUDOYBERDI O‘G‘LI

**NON ISHLAB CHIQRISHDA MAHALLIY TRITIKALE UNIDAN
RATSIONAL FOYDALANISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5203 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.bmti.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Jamol Dustiyarovich
texnika fanlari bo‘yicha (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Maxmudof Rafiq Amonovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor
Djaxangirova Gulnoza Zinatullayevna
texnika fanlari bo‘yicha (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 24-may soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84, faks: (+99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (463-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoyev ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-may kuni tarqatildi.
(2025-yil 24-martdagi № 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.F.Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

A.T.Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent.

I.B. Isabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda soʻnggi yillarda bugʻdoy donining novvoylik xossalari pasayishi va glyutensiz non mahsulotlariga talab ortishi sababli, tritikale va javdar donlaridan tortilgan novvoylik unlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu bugʻdoy donidagi glyuten bilan bogʻliq allergik kasalliklarning ortishi va uni yetishtirishda hosildorlikni oshirishga qaratilgan agrotexnik hamda iqlim bilan bogʻliq muammolar tufayli sodir boʻlmoqda. Natijada non mahsulotlarning tarkibidagi va sifatidagi nuqsonlar, kimyoviy tabiatli sintetik qoʻshimchalardan foydalangan holda qisman bartaraf etib kelinmoqda. Shu sababli, yangi yoʻnalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda tritikale donidan tortilgan un navlarining novvoylik xossalarini tadqiq etish orqali ovqatlanish ratsionida oqsil mahsulotlarining kamayishini oldini olishda oʻsimlik tabiatli xomashyolarni qayta ishlab, proteinli mahsulotlarning tarkibini oshirish, un assortimentlarini kengaytirish va oziqaviy xavfsizligini taʼminlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda novvoylik unlari assortimentini kengaytirish va ularning funktsional xossalarini oziqaviy qoʻshimchalarsiz yaxshilash texnologiyasini ishlab chiqish hamda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada kuchsiz novvoylik xossasiga ega un turkumlarini turli boshqoqli va dukakli don turlaridan tortilgan kuchli un turkumlari bilan belgilangan standart talablariga mos tarzda aralashtirib, ekologik toza non mahsulotlari ishlab chiqarishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy yumshoq bugʻdoy don turkumlaridan tortilayotgan yuqori navli unlardan non mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, energiya va resurs tejamkor tizimlardan foydalanishga alohida eʼtibor qaratilib, muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining uchinchi yoʻnalishida “oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish”¹ boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, faqat mahalliy bugʻdoy don turkumlaridan tortilgan navli unlarning non, makaron va unli qandalot mahsulotlari ishlab chiqarishda qoʻllanilishi inobatga olinsa, mahalliy tritikale va boshqa donlardan tortilgan un turkumlarining novvoylik xossalarini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2018-yil 12-yanvar PF-24 “Ilmiy –innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2019-yil 24-oktyabrdagi PF-5853 “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2018-yil

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4917-sonli “Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi” farmoni

26-apreldagi PQ-3680-son “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot, Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. “Qishloq xo’jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Tritikale donidan tortilgan jaydari navli undan non mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha V.M.Antonova, N.P.Kozmina, S.I.Koneva, S.YA.Koryachkina, E.A.Kuznetsova, N.V.Labutinoy, YU.N.Malofeeva, A.N.Novikova, R.D.Polandova, A.C.Romanova, I.Boris, YU.F.Roslyakova, T.V.Sanina, V.YA.Chernix, V.V.Sherbatenko, G.G.Frederick va tritikale donini hududiy navlarining texnologik xususiyatlarini o’rganib, undan oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashning turli maqsadlarida ratsional foydalanish bo’yicha N.M.Derkanosova, T.F.Dremuchev, R.K.Erkinbaeva, O.E.Karchevskaya, S.YA.Koryachkina, E.A.Kuznetsova, N.P.Kozmina, A.V.Lyubar, E.P. Meleshkina, L.P. Pashchenko, T.N. Tertychnaya, L.V. Cherepnina, S.A.Urubkov hamda M.G.Vasiev, I.B.Isabayev, T.I.Atamuratova, G.Z.Djaxangirova, P.Tursunxo’jayev R.T.Adizov, R.A.Xayitov, R.A.Mahmudov, M.T.Qurbonov, H.B.Ergasheva, R.I.Zuparov, V.E.Radjabova, X.Ch.Buriyev kabi mahalliy tadqiqotchilar novvoylik bug’doy unidan non ishlab chiqarishda retsepturasiga noan’anaviy o’simlik tabiatli qo’shimcha turlarini kiritish orqali ozuqaviy va biologik qiymatini oshirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ular tomonidan yuqori protein tarkibiga ega, minerallar va vitaminlarga boy dukkakli donlardan tortilgan un va sabzavot kukunlaridan qo’shimcha sifatida foydalanish orqali non mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini, texnologik sifat ko’rsatkichlarini yaxshilashga hamda assortimentini kengaytirishga erishilgan. Ammo, ilmiy adabiyotlarda ko’plab maqolalar mavjudligiga qaramasdan, non mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri - yangi an’anaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish hamda ma’lum tarkibi va xossalariga ega bo’lgan turli turdagi donlardan tortilgan novvoylik un navlarining xossalari bo’yicha etarli darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu bilan birga, mahalliy tritikale, oq jo’hori va javdar donlaridan novvoylik unlari olinib, bu unlarning xossalari hamda ulardan ishlab chiqariladigan non mahsulotlarining sifatini oziqaviy qo’shimchalarsiz yaxshilash texnologiyasini ishlab chiqish bo’yicha tadqiqotlar bugungi kunga qadar amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrizabz filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170930257-“Mahalliy bug’doy donlaridan navli un tortish texnologiyasida gidrotermik ishlov berish jarayonini takomillashtirish” (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy tritikale donidan tortilgan unni ratsional foydalanish orqali non ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tritikale donidan tortilgan novvoylik un navlarining texnologik xossalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish;

xorijiy va mahalliy tritikale doni asosiy navlarining unboplik va nonboplik xossalarini aniqlash, qiyosiy tahlil qilish hamda tadqiqotlar uchun maqbul navni tanlash;

mahalliy tritikale donidan tortilgan unning novvoylik xossalarini, amilolitik faolligini, kimyoviy tarkibi va oziqaviylik qiymatini aniqlash;

tritikale unini turli donlardan tortilgan novvoylik un turkumlaridan har xil nisbatda un aralashmalarini shakllantirish va ularning non mahsulotlarining sifati, chiqishi va oziqaviylik qiymatiga ta'sirini tadqiq qilish;

tritikale donidan tortilgan novvoylik un navlarining xossalari bo'yicha olingan tahliliy va tajribaviy natijalar asosida non ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yektlari sifatida mahalliy tritikale donidan tortilgan novvoylik un navlari hamda ulardan ishlab chiqarilgan non mahsulotlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Novvoylik tritikale uni navlaridan non mahsulotlarini ishlab chiqarish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida "Non yopish korxonalarida texnologik jarayonni tashkil etish va joriy qilish qoidalari"da keltirilgan umumiy hamda zamonaviy kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar, shuningdek, olingan natijalarni to'liq omilli eksperiment uslubi yordamida qayta ishlash usullarini qo'llagan holda regression tenglamalar tuzish hamda ularning adekvatligini tekshirish, natijalarni grafo-analitik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quruq iqlim sharoitida yetishtirilgan tritikale donining nonboplik xossalari nazariy va eksperimental ilmiy asoslangan;

mahalliy "Sardor" navli tritikale donining boshqa namunalarga nisbatan un chiqish unumdorligi 1,03 dan 1,7% gacha, samaradorlik mezoni 0,69% dan 1,6% gacha, amilolitik faolligi 41 dan 45 birlikgacha oshishi ilmiy asoslangan;

bug'doy uniga 30 % gacha mahalliy tritikale unini qo'shish orqali hosil qilingan un namunasi tarkibida kaliy, kaltsiy, magniy, temir hamda B guruhidagi (B₁, B₂, B₃, B₅, B₆, B₉) va PP vitaminlar miqdori dastlabki un namunasidagiga nisbatan ortishi aniqlangan;

navli novvoylik bug'doy uni hamda mahalliy tritikale donidan tortilgan un turkumlaridan 70:30 nisbatda kompozitsion aralashmalar shakllantirilishi asoslangan;

tritikale donidan tortilgan undan va mahalliy bug'doy hamda javdar donlaridan tortilgan navli novvoylik un turkumlari turli nisbatdagi kompozitsion aralashmalaridan non retsepturasini ishlab chiqishda foydalanish texnologiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quruq iqlim sharoitida yetishtirilgan tritikale donining unboplik va novvoylik

xossalari tadqiq qilinib, tegirmon va non sanoat korxonalarini uchun xomashyo bazasini kengaytirishga erishilgan shuningdek, mahsulotlarning oziqaviy xavfsizligini ta'minlovchi hamda funktsional xususiyatlarini kuchaytiruvchi non mahsulotlarini tayyorlash texnologiyalari ishlab chiqilgan;

non mahsulotlarini ishlab chiqarishda novvoylik tritikale uniga 30% gacha bug'doy va javdar un turkumlari aralashmasini qo'llash orqali non mahsulotlarining oziqaviy qiymati va biofaol moddalarining miqdorini oshirish imkoniyatlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tajribalarning aprobatsiya ko'riklaridan o'tkazilganligi; ilmiy tadqiqot natijalarining muhokama etilganligi; tajriba ma'lumotlarining statistik tahlil qilinganligi va olingan natijalarning ishlab chiqarishga joriy etilganligi; tadqiqot natijalari respublika va chet elda o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda, Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro'yxatiga kirgan ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi bilan izohlanadi, shuningdek tadqiqot natijalari ishlab chiqarish aprobatsiyasi natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati quruq iqlim sharoitida yetishtirilgan mahalliy tritikale donidagi amilolitik fermentlar faolligining past bo'lishi natijasida tayyor mahsulot chiqishi ortib, novvoylik xossalarning yaxshilanishi hamda biofaol moddalar hisobidan funktsional qo'shimchalarsiz yuqori oziqaviy qiymatga ega non mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyati ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati navli tritikale novvoylik unidan non mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilishi tayyor mahsulotning energetik qiymatini kamayishini va oqsil miqdori ortishi natijasida muhim (lizin, triptofan) almashinmaydigan aminokislotalar yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. mahalliy tritikale donidan tortilgan unni ratsional foydalanish orqali non ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

navli bug'doy uni va tritikale bug'doy unini turli nisbatlarda qo'shib, kompozit unni olish usuli "Nozi noni" MChJ korxonasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 21-noyabrdagi 22-110/11-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, bug'doy va tritikale unlarining 7:3 nisbatdagi aralashmalaridan tayyorlangan non mamunlarida uglevodlar miqdori 40 gramga, energetik qiymati 20 kkal ga pasayish imkonini bergan;

navli novvoylik bug'doy uniga 30% gacha navli tritikale unini aralashtirish orqali funktsional xususiyatlari kuchaytirilgan un hamda non mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi "Pokiza non plyus" MChJ korxonasida joriy etilgan (O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 21-noyabrdagi 22-110/11-24-son ma'lumotnomasi). Natijada, bug'doy va tritikale unlarining 70-30% nisbatlardagi aralashmalaridan tayyorlangan non mamunlarida uglevodlarning 40 g ga, energetik qiymatining 20 kkal ga pasayishi, lizin (0,020 g), triptofan (0,005 g) kabi almashinmaydigan aminokislotalar miqdorining ortishiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi va materiallari bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shundan 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan Respublika va 1 tasi xorijiy hamda 1 ta Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati oshib berilgan, tematik konferensiyalar hamda ishlab chiqarish sharoitlarida tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi va nashr etilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tritikale donining xossalari, ushbu don unidan novvoylik sanoatida foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro va respublikamizdagi ilmiy-tadqiqot ishlari sharhi keltirilib, unda tritikale, bug'doy va javdar donlarining kimyoviy tarkibi, unboplik hamda texnologik xossalari qiyoslash bo'yicha olib borilgan mavjud ilmiy tadqiqotlarning tahlili, tritikale donini kompleks qayta ishlash va biomodifikatsiyalash natijasida olinadigan un navlari hamda boshqa mahsulotlar, tritikale uni hamda tritikale-bug'doy va tritikale-javdar unlari aralashmalaridan non mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, Respublikamizning issiq va quruq iqlim sharoitlarida yetishtiriladigan tritikale donining istiqbolli navlari, ularning unboplik hamda texnologik xossalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni tadqiq qilish hamda non mahsulotlarini tayyorlash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari, ularning tavsifi, xom ashyolarni tadqiq qilishning fizik-kimyoviy usullari, yarim tayyor mahsulotlarning xossalari tadqiq qilish usullari, non mahsulotlarini sifati va oziqaviy qiymaini baholash usullari, tadqiqotlarning maxsus usullari, tajribalarni rejalashtirish va olingan natijalarni matematik tahlil qilish hamda ikkinchi bob bo'yicha xulosa keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy tritikale doni navlarining texnologik va novvoylik xossalari va ularning non mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy va xorijiy tritikale doni asosiy navlarining agrotexnik, unboplik va novvoylik texnologik xossalari aniqlash, qiyosiy tahlil qilish hamda tadqiqotlar uchun maqbul navni tanlash, mahalliy “Sardor”, “Temiryazevskaya 150” (Rossiya) va Dauren (Qozog'iston)

navlarining unboplik xossalarini qiyosiy tahlili, “Sardor” navli mahalliy tritikale donidan tortilgan unning kimyoviy tarkibi va energetik qiymatini aniqlash, mahalliy tritikale doni “Sardor” navidan tortilgan unning novvoylik xossalarini aniqlash va amilolitik faolligini tritikale donining boshqa navlaridan tortilgan unlarini bilan qiyosiy tahlil qilish, tritikale va bug‘doy un turkumlaridan yuqori novvoylik xossalarga ega un aralashmalarini shakllantirish, tritikale va bug‘doy unlari aralashmasidan non tayyorlash texnologik sxemasini tanlash va asoslash, Tritikale va bug‘doy unlari turli nisbatlarining xamir reologik xossalariga ta’siri, non mahsulotlari sifati, chiqishi, energetik qiymati va eskirish jarayoniga turli nisbatdagi tritikale va bug‘doy unlari aralashmalarining ta’siri, tritikale va javdar unlari aralashmasidan non tayyorlash texnologik sxemasini tanlash va asoslash, mahalliy tritikale va javdar unlari turli nisbatlarining non sifati, chiqishi va funksional xossalariga ta’siri o‘rganilgan. Unga ko‘ra, Respublikmizda yetishtiriladigan tritikale donning eng maqbul navi tanlab olinib, bug‘doy unlaridan tayyorlanadigan non mahsulotlari retsepturasida bug‘doy uni tritikale uni bilan almashtirilgan va novvoylik xossalari, tayyorlangan non mahsulotlari tajribaviy tadqiq qilingan. Tajribalardan olingan natijalar 1 - jadvalda keltirilgan.


1 - jadval

Tritikale doni navlarining fizik-kimyoviy tavsiflari


Ko‘rsatkichlar	Tritikale don navlari va yetishtirilgan mamlakatlar								
	Mahalliy			Rossiya			Qozog‘iston		
	Sardor	Do‘stlik-4	Baxodir	Temiryazevskaya 150	Altayskaya 4	Yubileynaya	Taza	Dauren	Aziada
Namlik, %	8,2	8,2	8,3	9,2	9,4	9,1	9,0	9,6	9,6
Shishasimonligi, %	39	36	32	31	30	31	32	40	34
Natura og‘irligi, g/l	752	729	734	727	721	726	729	729	723
1000 don vazni, g	43	39	42	39	39	38	39	42	39
Kuldorligi, %	1,74	1,79	1,82	1,76	1,71	1,73	1,74	1,71	1,76
Kleykovina miqdori, %	24	23	21	19,3	20	20	23	24	21
Kleykovinaning IDK shartli birliklardagi deformatsiya ko‘rsatkichi	91	104	106	90	96	98	96	93	99
Tushish soni	186	183	169	145	129	123	139	141	128

Jadvalda keltirilgan natijalaridan ko‘rinadiki, mahalliy “Sardor”, “Temiryazevskaya 150” (Rossiya) va Dauren (Qozog‘iston) tritikale doni navlarining fizik-kimyoviy tavsiflarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning aksariyati boshqa namunalarga nisbatan ustun.


Non mahsulotlarining oziqaviy qiymatini hisobga olishda nafaqat oqsillar miqdorini, balki oqsil tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalar miqdorini ham hisobga olish lozim. Shuning uchun tadqiqot uchun tanlangan tritikalening “Sardor”, bug‘doyning “Sila”, javdarning “Shalola” mahalliy don navlaridan tortilgan jaydari navli un oqsil fraksiyasining aminokislota tarkibi O‘zR FA Bioorganik kimyo institutida aniqlandi. Laboratoriya tahlillardan olingan natijalar 1-3 rasmlarda hamda 2 -jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Jaydari navli bug‘doy uni oqsil fraksiyasining aminokislota tarkibi xromatogrammasi



2-rasm. Jaydari navli tritikale uni oqsil fraksiyasining aminokislota tarkibi xromatogrammasi



3-rasm. Jaydari navli javdar uni oqsil fraksiyasining aminokislota tarkibi xromatogrammasi

Tadqiqot natijalari mahalliy tritikale doni aminokislota tarkibi jihatidan mahalliy bug‘doy va javdar donlarinikidan ustun ekanligini ko‘rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Mahaliy bug‘doy, javdar va tritikale donlaridan tortilgan navli un namunalari kimyoviy tarkibi (100 g)

Kimyoviy moddalar nomi	Un namunalari		
	bug‘doy uni	javdar uni	tritikale uni
Oziqa tolasi, g	5,9	12,9	14,57
Kraxmal, g	66,1	61,4	58,54
Yog‘, g	1,5	1,7	1,81
Oqsil, g	9,2	8,9	10,4
Almashinmaydigan aminokislotalar			
Lizin, g	0,221	0,210	0,369
Metionin, g	0,181	0,113	0,206
Triptofan, g	0,123	0,111	0,158
Valin, g	0,414	0,323	0,615
Leytsin, g	0,711	0,556	0,92
Izoleytsin, g	0,348	0,235	0,484
Treonin, g	0,282	0,278	0,409
Fenilalanin, g	0,517	0,445	0,644
Jami almashinmaydigan aminokislotalar	2,797	2,848	3,805

Olingan natijalar tritikale unida bug‘doy va javdar un namunalariida inson uchun foydali bo‘lgan oqsil miqdori 11,54-14,4% ga ortiqiligini ko‘rsatdi.

3-jadval

Mahaliy va xorijiy tritikale va bug‘doy donidan tortilgan navli un namunalari novvoylik xossalaring ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Un namunalari			
	Tritikale donlaridan			Mahalliy “Sila” navli bug‘doy
	Mahalliy “Sardor”	“Temiryaze vskaya 150” (Rossiya)	“Dauren” (Qozog‘is- ton)	
Kleykovina miqdori,%	23-25	20-23	22-25	25-27
Kleykovinaning qayishqoqligi, IDK shartli birlik ko‘rsatkichi	98-110	104-116	99-114	84-91
Gaz hosil qilish qobiliyati, sm ³	1390-1460	1420-1490	1430-1510	1370-1450
Tushish soni, sek	160-171	110-133	106-128	398-463
Un yirikligi	1,63/38	1,74/38	1,81/38	1,65/38
Kraxmalning shikastlanish darajasi	25,7	26,3	26,6	25,5

Tadqiqotlarda mahalliy “Sardor”, “Temiryazevskaya 150” (Rossiya) va “Dauren” (Qozog‘iston) navli tritikale va mahalliy “Sila” navli bug‘doy donlaridan tortilgan un namunalarining novvoylik xossalari va amilolitik faolligi o‘rganilib, olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi (3-jadval).

Tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tritikale donining novvoylik xossalarini tavsiflovchi tushish soni, IDK shartli birlik va kraxmalning shikastlanish darajasi ko‘rsatkichlari mahalliy “Sardor” namunada “Temiryazevskaya 150” va “Dauren” (Qozog‘iston) namunalariga nisbatan ustun.

“Sardor” va “Sila” navli tritikale hamda bug‘doy uni namunalarining turli xil kompozitsion aralashmalari novvoylik xossalari va amilolitik faolligi Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasining “Non mahsulotlari texnologiyasi” ilmiy laboratoriyasi hamda “Don-xalq rizqi” AJ korxonasining ishlab chiqarish laboratoriyalarida bajarildi. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4- jadvalda keltirilgan tajriba natijalari bug‘doy va tritikale unlarining mos ravishda 70% dan 30% gacha kompozitsion aralashmasi namunalarida novvoylik xossalari, jumladan, amilolitik faollik bo‘yicha, barcha ko‘rsatkichlar boshqa namunalariga nisbatan usutunligini ko‘rsatib turibdi.


4-jadval

Tritikale va bug‘doy uni namunalaridan tayyorlangan har xil kompozitsion aralashmalarning ular novvoylik xossalari va amilolitik faolligiga ta’siri

Kompozitsion un aralashmalarining namunalari	Kleyko-vina miqdori, %	IDK shartli birlik ko‘rsatkichi	Gaz hosil qilish qobiliyati, sm ³	Tushish soni, sek	Kraxmalning shikastlanish darajasi
bug‘doy uni -100%	27-29	85-93	1350-1420	410-470	24,8-26,3
bug‘doy uni -90% tritikale uni-10%	26-28	86-96	1355-1425	396-428	24,9-26,2
bug‘doy uni -80% tritikale uni-20%	26-27	88-99	1360-1430	371-405	24,7-26,4
bug‘doy uni - 70% tritikale uni- 30%	25-27	90-100	1370-1440	334-392	25,1-26,4
bug‘doy uni - 60% tritikale uni- 40%	24-26	93-102	1375-1445	311-368	25,2-26,5
bug‘doy uni - 50% tritikale uni- 50%	24-25	95-104	1375-1450	305-342	25,3-26,6
bug‘doy uni - 40% tritikale uni- 60%	23-25	98-106	1380-1455	288-326	25,4-26,6
tritikale uni-100%	23-25	98-110	1385-1460	171-186	25,7-26,9

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, 4-rasmda keltirilgan texnologik sxema ishlab chiqildi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida barcha tadqiq qilinayotgan namunalar uchun xamir reologik xossalarining quyidagi ko‘rsatkichlari qayd etildi (5-jadval).



4-rasm. Tritikale va bug‘doy uni aralashmasidan non mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik sxemasi:

1. Tritikale uni uchun bunker, 2. Bug‘doy uni uchun bunker, 3. Un uchun dozator, 4. Vintli shnek, 5. Elak, 6. Taroz, 7. Ishlab chiqarish bunker, 8. Achitqi eritmasi uchun sig‘im, 9. Tuz eritmasi uchun sig‘im, 10. Suv uchun sig‘im, 11. Xamir qorish mashinasi (xamirturush tayyorlash uchun), 12, 15. Dejalar, 13, 16. Bijg‘itish xonasi, 14, 17. Deja ko‘targich, 18. Xamir bo‘laklash mashinasi, 19. Stol, 20. Vagonetka, 21. Tindirish shkafi, 22. Pishirish pechi, 23. Tayyor mahsulot stoli, 24. Vagonetka.

5-jadval

Miksolabning profaylo indeklari

Un namunalari	Miksolab indeklari					
	Suv yutish qobiliyati	Xamir qorish	Kleykovina	Qovushqoqlik	Amilaza	Kraxmalning retrogradatsiyasi
“Sila” bug‘doy uni -100%	4	5	2	2	6	6
bug‘doy uni -90%; tritikale uni-10%	4	5	2	2	6	6
bug‘doy uni -80%; tritikale uni-20%	4	5	2	3	6	6
bug‘doy uni - 70%; tritikale uni- 30%	3	5	2	3	6	6
bug‘doy uni - 60%; tritikale uni- 40%	3	4	3	3	6	6
bug‘doy uni - 50%; tritikale uni- 50%	2	4	3	3	6	6
bug‘doy uni - 40%; tritikale uni- 60%	2	3	4	3	6	6
“Sardor” tritikale uni-100%	2	3	4	4	6	6

Olingan natijalardan mahalliy “Sardor” navli tritikale va bug‘doy unining 70:30 nisbatidagi kompozitsion aralashmalarda miksolabning profaylo indeklari boshqa namunalarnikiga nisbatan yuqoriligi namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida

olingan boshqa tajriba natijalarining reologik xossalarga mosligi o'rganildi. Shunga ko'ra, 6-jadvalda keltirilgan un namunalari xamirining reologik xossalari (Mixolab Chopin+) tajribaviy aniqlandi.

6-jadval

Un namunalari reologik xossalarining asosiy parametrlari (Chopin+ bo'yicha)

Un namunalari	Xamir qorish vaqti, min	S1	S2	S3	S4	S5
“Sila” bug‘doy uni -100%	9,27	1,143	0,449	1,511	1,798	3,123
bug‘doy uni -90%; tritikale uni-10%	8,34	1,127	0,416	1,492	1,787	3,064
bug‘doy uni -80%; tritikale uni-20%	7,85	1,109	0,399	1,495	1,787	3,059
bug‘doy uni-70%; tritikale uni- 30%	7,36	1,064	0,380	1,501	1,809	3,053
bug‘doy uni- 60%;tritikale uni- 40%	7,14	1,057	0,356	1,502	1,874	3,076
bug‘doy uni-50%; tritikale uni- 50%	6,49	1,057	0,356	1,569	1,959	3,172
bug‘doy uni-40%; tritikale uni- 60%	5,23	1,054	0,319	1,453	1,963	3,174
“Sardor” tritikale uni-100%	3,39	1,089	0,283	1,673	2,246	3,549

Mahalliy “Sardor” navli tritikale hamda “Sila” bug‘doy donlaridan tortilgan un namunalariidan tashkil topgan turli nisbatdagi kompozitsion aralashmalarining non mahsulotlari texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasining “Non mahsulotlari texnologiyasi” ilmiy hamda “Don-xalq rizqi” AJ korxonasiining ishlab chiqarish laboratoriyalarida o'rganildi. Tajribadan olingan natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Non mahsulotlarining texnologik sifat ko'rsatkichlariga “Sardor” tritikale va “Sila” bug‘doy uni va ularning har xil kompozitsion aralashmalarining ta'siri

Un namunalari	Non namligi, %	Mag'zi kislotali ligi, °N	Non hajmi, sm ³	Non solish -tirma hajmi, g/cm ³	Mag'iz g'ovakliligi, %	Non sifati bahosi, ball
“Sila” bug‘doy uni -100%	43,3	3,2	590	2,74	64	69
bug‘doy uni -90%; tritikale uni-10%	43,32	3,4	585	2,69	61	67
bug‘doy uni -80%; tritikale uni-20%	43,32	3,4	570	2,58	60	67
bug‘doy uni-70%; tritikale uni- 30%	43,36	3,6	570	2,39	58	66
bug‘doy uni- 60%;tritikale uni- 40%	43,64	3,8	520	2,27	54	62
bug‘doy uni-50%; tritikale uni- 50%	43,63	4,2	490	2,14	52	55
bug‘doy uni-40%; tritikale uni- 60%	43,68	4,9	460	2,14	49	53
“Sardor” tritikale uni-100%	44,14	5,8	450	1,96	46	52

Tritikale va bug‘doy un namunalariining turli nisbatdagi kompozitsion

aralashmalaridan tayyorlangan non mahsulotlarining energetik qiymati O‘zR FA Bioorganik kimyo institutida aniqlandi. Olingan tahlillar natijalari 8-9-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Non mahsulotlarining oziqa moddalar turli nisbatdagi bug‘doy va tritikale un namunalari kompozitsion aralashmalarining ta’siri (100 g undagi oziqaviy moddalar miqdori)

Un namunalari	Ko‘rsatkichlar			Energetik qiymati, kkal/100 g
	Oqsil, g	Yog‘, g	Uglevodlar, g	
bug‘doy uni -100%	9,6	1,3	68,4	331,89
bug‘doy uni -90%; tritikale uni-10%	9,67	1,348	67,57	327,22
bug‘doy uni -80%; tritikale uni-20%	9,74	1,396	66,74	325,55
bug‘doy uni - 70%; tritikale uni- 30%	9,81	1,444	65,91	322,88
bug‘doy uni - 60%; tritikale uni- 40%	9,88	1,492	65,08	321,21
bug‘doy uni - 50%; tritikale uni- 50%	9,95	1,54	64,25	318,54
bug‘doy uni - 40%; tritikale uni- 60%	10,02	1,588	63,42	315,87
tritikale uni-100%;	10,3	1,78	60,1	305,19

9-jadval

Non mahsulotlarining almashinmaydigan aminokislota tarkibiga bug‘doy va tritikale unining turli nisbatdagi kompozitsion aralashmasining ta’siri (100 g undagi miqdori)

Un namunalari	Lizin, g	Metionin, g	Triptofan, g	Valin, g	Leytsin, g	Izoleytsin, g	Treonin, g	Fenilalanin, g
bug‘doy uni -100%	0,224	0,214	0,129	0,414	0,711	0,348	0,282	0,517
bug‘doy-90%; tritikale-10%	0,23	0,214	0,131	0,41	0,710	0,347	0,284	0,519
bug‘doy-80%; tritikale-20%	0,235	0,213	0,133	0,413	0,709	0,346	0,286	0,52
bug‘doy-70%; tritikale-30%	0,241	0,213	0,134	0,412	0,709	0,345	0,288	0,523
bug‘doy-60%; tritikale-40%	0,246	0,212	0,134	0,411	0,708	0,344	0,29	0,525
bug‘doy-50%; tritikale-50%	0,252	0,212	0,138	0,410	0,707	0,344	0,292	0,527
bug‘doy-40%; tritikale-60%	0,258	0,211	0,14	0,409	0,706	0,343	0,293	0,528
tritikale uni-100%	0,28	0,21	0,147	0,407	0,703	0,339	0,301	0,536

Olingan tajriba natijalari bug‘doy va tritikale unining 70:30 nisbatda bo‘lgan kompozitsion aralashmalarida uglevodlar, xususan kraxmalning konsentratsiyasi hisobiga nonning energetik qiymatini kamayishini va oqsil miqdori ortishi natijasida muhim (lizin, triptofan) almashinmaydigan aminokislotalar ulushining xam ortishini ko‘rsatdi.

Non mahsulotlarini saqlash davomidagi “eskirish” jarayonini bug‘doy va tritikale un namunalari hamda ularning xar hil kompozitsion aralashmalaridan namunaviy nonlar pishirilib, 24 soat saqlanganidan so‘ng organoleptik va fizik-kimyoviy baholandi. Olingan natijalar 10 - jadvalda 5-8 rasmlarda keltirilgan.


10 - jadval

Non mahsulotlarining organoleptik sifat ko‘rsatkichlariga tritikale va bug‘doy uni hamda ularning har xil kompozitsion aralashmalarining ta’siri


Nonning sifat ko‘rsatkichlari	Baho, ball	Qoliqli non uchun		Un namunalari							
		ki	ki · xi	bug‘doy uni -100%	bug‘doy uni -90% tritikale uni-10%	bug‘doy uni -80% tritikale uni-20%	bug‘doy uni - 70% tritikale uni- 30%	bug‘doy uni - 60% tritikale uni- 40%	bug‘doy uni - 50% tritikale uni- 50%	bug‘doy uni - 40% tritikale uni- 60%	tritikale uni-100%
Shakli	1-5	2	2-10	6	6	6	6	5	5	4	4
Qobig‘ining rangi	1-5	2	2-10	5	5	5	5	5	4	4	4
Qobiq yuzasining holati	1-5	2	2-10	5	6	5	5	4	4	4	4
Mag‘izining holati	1-5	5	5-25	20	19	19	19	17	16	14	13
Non mag‘izining g‘ovakligi	1-5	3	3-15	12	12	11	11	10	9	8	7
Xushbo‘yligi	1-5	3	3-15	10	9	10	9	9	8	8	7
Ta‘mi	1-5	3	3-15	10	10	10	10	10	10	9	8
Non sifatining bahosi, ball			20-100	68	67	66	65	60	56	51	47

Bug‘doy un namunasiga nisbatan 10-30% tritikale uni qo‘shilgan kompozitsion aralashamali namunalarda non mahsulotlarining organoleptik sifat ko‘rsatkichlari deyarli bir xillikni ko‘rsatdi.


Navli novvoylik bug‘doy uni va navli tritikale unining turli xil kompozitsion aralashmalaridan tayyorlangan non mahsulotlarini saqlash davomidagi “eskirish” jarayonini tavsiflovchi nonning yangilik darajasi (ballarda), non mag‘zining namligi, suvda bo‘kishi, uvoqlanish darajasi hamda penetrometrik aniqlandi (5 - 7 rasmlar).



5 - rasm. Non namunalarini saqlashda yangilik ko'rsatkichi darajasining o'zgarishlari (ballarda)




6 - rasm. Non namunalarini saqlashda ular mag'izi namligining o'zgarishlari (% larda)



7 - rasm. Non namunalarini saqlashda ular mag'izining uvoqlanishi (% larda)

8-rasmda keltirilgan penetrometrik tadqiqotlarning natijalaridan ko'rinib turibdiki, birinchi navli novvoylik bug'doy uniga navli tritikale unini 30% gacha qo'shish orqali saqlashda eskirish jarayonini ahamiyatli darajada sekinlashtirishga erishiladi.



8 - rasm. Non namunalarini saqlashda ular mag'izi penetrometrik ko'rsatkichlarining o'zgarishlari

Saqlash davomida non mag‘zining namligi, suvda bo‘kish va uvoqlanish darajalaridagi o‘zgarishlar ham penetrometrik tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqarish sharoitlaridagi tajriba-sinov natijalari va tadqiqot natijalarini amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida mahalliy tritikale va novvoylik bug‘doy uni turli nisbatlarining non chiqishi va sifatiga ta’siri bo‘yicha ishlab chiqarish sharoitlaridagi tajriba sinovlari natijalari, mahalliy tritikale va javdar uni turli nisbatlarining non chiqishiga va sifatiga ta’siri bo‘yicha ishlab chiqarish sharoitlaridagi tajriba sinovlari natijalari, mahalliy tritikale unidan non mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash bo‘yicha ma’lumotlar hamda to‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Bunda “Nozi non” va “Pokiza non plus” MChJ korxonalarida ishlab chiqarish sanoat-sinov tajribalaridan olingan natijalarning o‘rtacha qiymatlari, Buxoro muhandislik-texnologiya va Toshkent kimyo-texnologiya institutining “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası laboratoriyalarida olingan natijalar bilan korrelyatsiyaga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSALAR

1. Quruq iqlim sharoitida yetishtirilgan mahalliy tritikale doni navlarining unboplik va texnologik xossalari o‘rganildi hamda xorijiy navlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilinib, istiqbolli mahalliy nav tadqiqot uchun tanlandi.

2. Xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarning analitik hamda texnologik tahlillarini bajarishning mavjud standart va zamonaviy usullaridan foydalanilib, tritikale doni va undan tortilgan unning texnologik xossalari qiyosiy tadqiqot etishning fizik-kimyoviy usullari va tajribalarni rejalashtirish hamda olingan natijalar MathCAD paketida matematik tahlil qilindi.

3. “Sardor” navli tritikale donining unboplik xossalari: un chiqish unumdorligi 70,1%, kul miqdori 0,74% ni va samaradorlik mezoni 40,67% ni tashkil etib, boshqa namunalarga nisbatan ustunligi aniqlandi.

4. Tritikale va bug‘doy uni namunalarining 70:30 nisbatda bo‘lgan kompozitsion aralashmalarida uglevodlar, xususan kraxmalning konsentratsiyasi hisobiga nonning energetik qiymatini kamayishini va oqsil miqdori ortishi natijasida muhim (lizin, triptofan) almashinmaydigan aminokislotalar ulushi ortishi tadqiq qilindi.

5. Tritikale unida bug‘doy va javdar unlariga nisbatan kaliy, kaltsiy, magniy temir hamda B guruh (B₁, B₂, B₃, B₅, B₆, B₉) va PP vitaminlarning miqdori yuqoriligi bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan non mahsulotlardagi tarkibga nisbatan muhim ahamiyatga egaligi tahlil qilindi.

6. Tritikale donidan tortilgan novvoylik un navlarining xossalari bo‘yicha olingan tahliliy va tajribaviy natijalardan non ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc 03/28.02.2022.Т.101.01 ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ШАХРИСАБЗСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ХИМИКО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА**

САДУЛЛАЕВ СИРОЖИДДИН ХУДАЙБЕРДИ УГЛИ

**РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕСТНОЙ МУКИ
ТРИТИКАЛЕ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ ХЛЕБА**

**02.00.17 - Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки сельско-
хозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2025.1.PhD/Т5203.

Докторская диссертация выполнена в Шахрисабзском филиале Ташкентского химико-технологического института.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу (www.ziynet.net).

Научный руководитель:

Мирзаев Жамол Дустиярович
кандидат технических наук (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Махмудов Рафик Аманович
доктор технических наук (DSc), профессор

Джахангирова Гулназа Зинатуллаевна
кандидат технических наук (PhD), профессор

Ведущая организация:

Гулистанский Государственный Университет

Защита диссертации состоится 24 мая 2025 г. в 09⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. Каюма Муртазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрировано №463). (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. Каюма Муртазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84.)

Автореферат диссертации разослан 12 мая 2025 года.
(реестр протокола № 1 от 24-марта 2025 года).



С.Ф.Фотилов
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т.Олтиев
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

И.Б. Исабаев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в последние годы, в связи с определённым ухудшением хлебопекарных свойств муки из зерна пшеницы и увеличением спроса на безглютеновые хлебные изделия, возрастает потребность в хлебопекарной муке из других видов злаковых растений, в частности из тритикале и ржи. Данная закономерность обусловлена ростом аллергических и алиментарных заболеваний, связанных также с агротехническими факторами, направленными на повышение урожайности пшеницы. В результате для получения качественной продукции массового спроса используют синтетические добавки, позиционируемые как улучшители качества хлеба. Поэтому всё большее значение приобретают научные исследования по изучению хлебопекарных свойств муки из зерна тритикале, характеризующейся низким содержанием глютена, что практически не отражается на её биологической ценности.

В мире проводятся также исследования, направленные на расширение ассортимента хлебопекарной муки и разработку технологий улучшения её функциональных свойств без пищевых добавок и с использованием энергосберегающих технологий. В связи с этим особое внимание уделяется производству экологически чистых хлебных изделий путём комбинирования муки, отличающейся хлебопекарными свойствами, из различных видов зерновых и бобовых культур.

В нашей республике также в соответствии с мировыми тенденциями повышенное внимание уделяется использованию энерго- и ресурсосберегающих технологий в производстве хлеба и хлебобулочных изделий из местных сортов пшеницы. Так, в Стратегии развития Республики Узбекистан определены важные задачи для «дальнейшего укрепления продовольственной безопасности, расширения производства экологически чистой продукции»¹. В связи с этим, проводятся также исследования, направленные на изучение хлебопекарных свойств муки из местных сортов тритикале и других зерновых культур, что имеет не только научное, но и существенное практическое значение.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-6097 от 29 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», УП-5853 от 24 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», УП-5303 от 16 января 2018 года «О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №24 от 12 января 2018 года «О мерах по созданию эффективных механизмов внедрения научно-инновационных разработок и технологий в производство», а также других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 07.02. 2017 года № УП-4917 «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан»

